*Toshkent shahar statistika boshqarmasi*

# 2018 yilning yanvar – iyul oylarida
# QURILISH ISHLARI

Joriy yilning yanvar-iyul oylarida Toshkent shahrida jami 4 779,6 mlrd.so’m qurilish ishlari bajarilgan bo‘lib, o’sish surati o’tgan yilning mos davriga nisbatan 111,6 %ni tashkil etdi.

Jami qurilish ishlari hajmidan yirik pudrat tashkilotlari tomonidan 1 287,2 mlrd.so’m qurilish ishlari bajarilib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 26,9% hamda o’tgan yilning mos davriga nisbatan 110,2 %ni tashkil etdi.

Kichik korxona va tashkilotlar, mikrofirmalar hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 53,2 %i yoki 2 539,3 mlrd.so‘m to‘g‘ri keldi va o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 118,3 %ni tashkil etdi, norasmiy sektor hissasiga esa 19,9 % yoki 953,1 mlrd.so‘m to‘g‘ri keldi hamda o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 99,7 %ni tashkil etdi.

**Raqamlar:**

Qurilish ishlari hajmi - **4779,6 mlrd.so’m**

Yirik pudrat tashkilotlari ulushi - **26,9 %**

Kichik tashkilotlar va mikrofirmalar ulushi - **53,2 %**

Norasmiy sektor ulushi - **19,9 %**

Yirik pudrat tashkilotlari
- hajmi - **1 287,2 mlrd.so‘m**
- o‘sish surati - **110,2 %**

Kichik tashkilotlar va mikrofirmalar
- hajmi - **2 539,3 mlrd.so‘m**
- o‘sish surati **118,3 %**

Norasmiy sektor
- hajmi - **953,1 mlrd.so‘m**
- o‘sish surati - 99,7 **%**




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish loyihalarini ishlab chiqish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan binolar qurish hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolarni qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi. Ularning ulushi jami qurilish ishlari hajmida 60,6 %ni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davridagi ko'rsatkichga nisbatan 1,5 % punktga ko'paydi.

Fuqarolik qurilishi ob'ektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari hajmi joriy davrda 19,6 %ni tashkil etib, o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 1,4 % punktga kamaydi.

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hissasiga esa 19,8 % to'g'ri kelib, o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 0,1 % punktga kamaydi.

## Yanvar-iyul oylarida qurilish ishlarining faoliyat turlari bo‘yicha tarkibi







Binolar va inshootlarni qurish bo‘yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi ulushi 19,0 %ni tashkil etib, o‘tgan yildagi ko‘rsatkichga nisbatan 0,4 % punktga ko‘paydi. Bunda kichik tashkilotlar va mikrofirmalar ulushi 48,1 % (18,7 % puktga ko‘payish) va norasmiy sektorning ulushi 32,9 %ni (19,1 % punktga kamayish)

## 2018 yil yanvar-iyulida faoliyat turlari bo‘yicha tarkibi
*(jamiga nisbatan %da)*




Fuqarolik qurilishi obyektlarini qurish ishlari bo‘yicha yirik pudrat tashkilotlarining ulushi 64,7 %ni tashkil etdi va o‘tgan yildagi ko‘rsatkichga nisbatan 9,4 % punktga kamaydi. Shuningdek, kichik tashkilotlar va mikrofirmalar ulushi 35,3 %ni tashkil etib, o‘tgan yildagi ko‘rsatkichga nisbatan 9,3 % punktga ko‘paydi.

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik pudrat tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi o‘tgan yildagi ko‘rsatkichga nisbatan 3,0 % punktga kamaydi va 13,8 %ni tashkil etdi. Qolgan 86,2 % kichik tashkilotlar va mikrofimalar hissasiga to‘g‘ri kelib o‘tgan yildagi ko‘rsatkichga nisbatan 3,0 % punktga ko‘paydi.

Yirik pudrat tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining tumanlar bo‘yicha tarkibida Mirobod tumani yetakchilik qilmoqda. Ushbu hududda bajarilgan qurilish ishlarining 60,7 %i yirik pudrat tashkilotlari tomonidan bajarilgan




Yirik pudrat tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng kam ulushi Yashnobod tumanida kuzatildi 0,3%. Bu hududdagi qurilish ishlarining asosiy qismi kichik korxonalar hissasiga to‘g‘ri keladi – hududdagi jami qurilish ishlarining 99,7 %i.

## Tumanlarda qurilish ishlarining o‘sish suratlari
## *(o`tgan yilning mos davriga nisbatan %da)*




Qurilish ishlarining hududlar kesimida eng yuqori o‘sish surati Shayxontoxur tumanida kuzatildi.

Katta hajmda amalga oshirilayotgan qurilish ishlariga quyidagilarni keltirish mumkin:

- “Tashkent City” majmuasining qurilishi ;

- Shaharda ko’priklar va temir yo’l halqasining qurilishi,

- Yangi biznes aeroportining qurilishi;

- Chilonzor tumanida - milliy bog’ni rekonstruksiya qilish;

- Sergeli tumani ko’p qavatli arzonlashtirilgan uy-joylarni qurilishi;

-Chilonzor tumanida “Humo” sport saroyining qurilishi.

## Tumanlar kesimida qurilish ishlari
## *(mlrd.so`m)*






**Toshkent shahar statistika boshqarmasi**
**Investitsiya va qurilish statistikasi**
**bo'limi**

Nashr uchun mas'ul: **Sh.Yarashov**
Aloqa telefoni: ***(0371) 230-88-18***